

O'zSQB xususiylashtirishidan oldin ajratiladigan konvertatsiya qilinadigan kredit

Mamlakat: O'zbekiston

Loyiha raqami: 52808

Faoliyat sohasi: Moliyaviy muassasalar

Bildirishnoma turi: Xususiy

Ekologik toifasi: FI

Tasdiqlangan kuni: 2022-yil, 26-yanvar

Qaysi bosqichdaligi: **Konsepsiya muhokamadan o'tgan**

Loyihaning qisqacha mazmuni chop etilgan sana (ingliz tilida): 2021-yil, 17-dekabr

Axborotdan erkin foydalanish siyosatining III bo'limi 2.6-bandida ruxsat etilganidek, loyihaning qisqacha mazmunini chop etish Axborotdan erkin foydalanish ko'rsatmalarining 1.4.4-bandiga muvofiq kechroq muddatga surilgan.

Loyiha mazmuni

O'zbekiston Respublikasida ta'sis qilingan "O'zbekiston Sanoat-Qurilish Banki" aksiyadorlik tijorat bankiga (O'zSQB) 50 million AQSH dollarigacha bo'lgan miqdorda birinchi darajali xususiylashtirishdan oldin ajratiladigan konvertatsiya qilinadigan kredit berish. YTTB kreditining 20% qismi energiya jihatdan samaradorlik, qayta tiklanuvchi energiya va iqlim o'zgarishini oldini olishdagi barqarorlikni oshirish kabi loyihalarni qo'llab-quvvatlashga yo'naltiriladi. Qolgan mablag'lar esa, xususiy sektordagi qarz oluvchilarga kredit sifatida beriladi. Mazkur kreditni konvertatsiya qilish YTTBning to'liq ixtiyorida bo'lib, u O'zSQBning xususiylashtirilishi qanday amalga oshirilishiga bog'liq bo'ladi.

Loyiha maqsadi

Bu Loyiha, bank sohasini isloh qilishda O'zbekiston Respublikasi hukumatiga ko'maklashuvchi boshqa xalqaro moliyaviy muassasalarni (XMM) jalb qilgan holda, konvertatsiya qilinadigan kredit mablag'larini ajratish yo'li bilan O'zSQBni xususiylashtirishga ko'maklashish uchun yo'naltiriladi. Ushbu kredit mablag'lari xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va yashil iqtisodiyotga qilinadigan investitsiyalar uchun sarflanadi.

O'tish davri ta'siri

Kutilayotgan o'tish davri ta'siri (KO'DB) bahosi: 71

Bu Loyiha mamlakatdagi eng yirik banklardan birini tijratlashtirish va bu muassasadagi xususiy sektor ishtirokini kengaytirishga ko'maklashishni qo'llab-quvvatlash hisobiga O'zbekiston moliya sektorining barqarorligini oshiradi. Shuningdek, ushbu Loyiha O'zSQBda korporativ boshqaruvni takomillashtirishga xususan korporativ boshqaruv bo'yicha maxsus treninglar o'tkazish orqali hissa qo'shadi. Kredit mablag'lari to'liq ajratilib, O'zSQB faoliyati yangilangandan so'ng YTTB ushbu bankning Kuzatuv kengashiga raislikka o'z nomzodini qo'yish huquqini qo'lga kiritadi. Mazkur bitim mamlakatning moliya sektoridagi xususiylashtirish siyosati borasida YTTBning davomli ishlarining bir qismi hisoblanadi.

Mijoz haqida

“O'ZBEKISTON SANOAT-QURILISH BANKI” AKSIYADORLIK TIJORAT BANKI
(O'ZSANOATQURILISHBANK)

O'zSQB O'zbekistonda ilk tashkil qilingan banklardan biri bo'lib, boshqa banklar orasida aktivlari bo'yicha uchinchi o'rinni egallaydi (bozordagi ulushi 13%). Mazkur bank aksiyalarining nazorat paketi, asosan, Moliya vazirligi orqali, O'zbekiston hukumatiga tegishlidir. 2021-yil 1-yarmi yakunlariga ko'ra, bu bank o'z mablag'lari hajmi 651 million AQSH dollarini, umumiy aktivlari qiymati esa, 4.78 milliard AQSH dollarini tashkil qilgan. O'zSQB o'z mijozlarini barqaror ekologik tizimga o'tishlarini qo'llab-quvvatlovchi O'zbekistondagi yashil iqtisodiyotga asoslangan ilk bank bo'lishni maqsad qilgan. Ushbu bankning mamlakat bo'ylab 44 ta filiali, 146 ta bank xizmatlari ko'rsatish markazi mavjud. Ularda esa, 3885 ta xodim 1.5 millondan ortiq mijozlarga xizmat ko'rsatadi. O'zSQB Fitch tizimi bo'yicha (BB-/Barqaror) va S&P tizimi bo'yicha (BB-/Salbiy) reytinglarga ega.

YTTBdan ajratiluvchi moliyaviy mablag'lar

50 000 000,00 AQSH dollari

Loyihaning umumiy qiymati

50 000 000,00 AQSH dollari

Qo'shimchalilik sharti

YTTB tajribasi O'zSQBga samarali korporativ boshqaruvning mahalliy talablardan ancha yuqori bo'lgan standartlariga erishish va ularni qo'llab-quvvatlash, shuningdek, ilg'or tajribalarni joriy qilishni davom ettirishga yordam beradi. YTTB mazkur bankga texnik ko'maklashishni ko'zda tutadi va bunda uning jadal rivojlanishi uchun salohiyatini oshirish, iqlim o'zgarishlarini boshqarish bo'yicha ilg'or xalqaro tajribalarni joriy qilish, risklarni boshqarish hamda ma'lumotlarni oshkor qilish sohalariga e'tibor qaratiladi. Bu Loyihada YTTBning bosqa XMM qatoridagi ishtiroki islohotlarni targ'ib qilishni kuchaytirishi bilan bir qatorda, O'zSQBning kerakli yo'nalish bo'yicha o'zgarishda

davom etishiga ko'maklashadi. YTTBning bu Loyihadagi, avvalo, kreditor, va katta ehtimol bilan, bank aksiyadori sifatidagi ishtiroki O'zSQBning kelgusidagi faoliyati biznes va korporativ boshqaruvning xalqaro standartlariga asoslanishiga yordam beradi. Bu esa, bankning kelgusidagi potensial xususiy investorlari uchun ijobiy omil bo'lib xizmat qiladi.

Ekologik-ijtimoiy xulosa

FI toifasiga kiritildi (ESP , 2019). O'zSQB Bankning joriy mijozlaridan hisoblanadi. Ekologik va ijtimoiy ekspertiza (ESDD) O'zSQBning ekologik va ijtimoiy

boshqaruv tizimini (ESMS) joriy qilish bo'yicha sharhini o'z ichiga oladi. Mazkur ESMS 9-loyiha talabiga (PR9) to'laqonli mos kelishi ko'zda tutiladi. Ushbu moliyaviy mablag'lar energiya jihatdan samaradorlik, qayta tiklanuvchi energiya manbalari va iqlim o'zgarishiga barqarorlikni oshirish sohalariga qilinadigan investitsiyalarni o'z ichiga olgan xususiy sektordagi investitsiyalarga yo'naltiriladi. Shuningdek, mazkur sub-qarz doirasidagi potensial risk darajasi yuqori bo'lgan bitimlarni hisobga olish uchun ESMS tizimini takomillashtirish kerak bo'ladi (A toifasiga kiritiladigan har qanday loyiha moliyalashtirilmaydi). Shu bilan birga, O'zSQB YTTBning (PR 2 va PR4) loyiha talablariga hamda korporativ, kichik va o'rta biznes korxonalari va mikro kreditlar uchun atrof-muhit va ijtimoiy xatarlarni boshqarish tartib-qoidalariga rioya qilishda davom etishi kerak bo'ladi. Loyiha doirasida ESMSni takomillashtirish uchun texnik ko'makni qo'llab-quvvatlash ko'zda tutiladi. Moliyaviy mablag'lar bank kapitaliga o'tkazilgandan so'ng 9-loyiha talabi (PR9) O'zSQBning butun portfeliga nisbatan qo'llaniladi (imzolash paytidagi har qanday yangi risklar) va ESMS ushbu jarayongacha, zaruratga qarab, qo'shimcha tarzda yangilanadi.

Texnik ko'mak va grant asosida moliyalashtirish

Texnik ko'mak mablag'lari O'zSQB va boshqa ishtirokchi XMM bilan birgalikda qo'shimcha muhokama qilish va qaror qabul qilish uchun bankning muayyan faoliyat sohasiga ko'maklashish va uni rivojlantirish uchun sarflanishi mumkin. ESMS'ni takomillashtirishga ko'maklashish uchun texnik ko'mak mablag'laridan foydalanishda bu Loyihada ishtirok etayotgan XMM bilan kelishiladi. Agar YTTB bankning doimiy qo'llab-quvvatlovchi aksiyadoriga aylanib, ESMS'ni joriy qilishni monitoring qiladigan bo'lsa, texnik hamkorlikning qo'shimcha yordami zarur bo'lishi mumkin. YTTB mazkur bankga texnik ko'maklashish imkoniyatini ko'zda tutadi va bunda uning jadal rivojlanishi uchun salohiyatini oshirish, iqlim o'zgarishlarini boshqarish bo'yicha ilg'or xalqaro tajribalarni joriy qilish, risklarni boshqarish hamda ma'lumotlarni oshkor qilish sohalariga e'tibor qaratiladi.

Kompaniyaga murojaat qilish uchun ma'lumot

Akmal Polvonov, Direktor, Xorijiy investitsiyalar va xalqaro aloqalar bo'limi
ak_palvanov@uzpsb.uz
+99871 120 45 00 (ext. 1110)
+99894 711 16 55
<https://sqb.uz>

Toshkent shahar, Shahrisabz ko'chasi 3-uy. O'zbekiston Respublikasi. Pochta indeksi: 100000

Loyihaning qisqacha mazmuni so'nggi marta yangilangan sana

2021-yil, 17-dekabr

O'tish davri nima

O'tish davri ta'sirini baholash bo'yicha YTTB yondashuvi haqidagi qo'shimcha ma'lumotni [mana bu havolada](#) olishingiz mumkin.

Loyihalarda ishtirok etish uchun imkoniyatlar

Loyihada yoki xaridlarda ishtirok etish uchun mijoz kompaniyaga murojaat qiling.

YTTB bilan (xaridlarga oid bo'lmagan masalalarda) hamkorlik qilish uchun quyidagi telefon yoki elektron pochta orqali bog'laning:

Tel: +44 20 7338 7168

E-manzil: projectenquiries@ebrd.com

Davlat sektoridagi loyihalar uchun [YTTB xaridlari](#) sahifasiga o'ting:

Tel: +44 20 7338 6794

E-manzil: procurement@ebrd.com

Umumiy ma'lumotlar

Aniq so'rovlar [YTTB so'rovlar shakli](#)dan foydalangan holda berilishi mumkin.

Ekologik va ijtimoiy siyosat (ESP)

YTTB o'zining "ekologik jihatdan mas'ul va barqaror rivojlantirish" tashabbusini ilgari surishda [Ekologik va ijtimoiy siyosat](#) va uning tarkibiy qismi bo'lgan loyiha talablari (PR) Bank loyihasini amalda qo'llash tartibini belgilab beradi. ESP va PR tegishli milliy qonunchilik doirasida Bank mijozlarining keng jamoatchilikka axborot berishi va maslahatlashishini ta'minlash, shuningdek manfaatdor tomonlarning xavotirlari va shikoyatlarini, ayniqsa, ekologik va ijtimoiy muammolarni ko'rib chiqish va hal qilishga yordam beradigan mexanizmni yaratishdagi aniq talablarni o'z ichiga oladi. Loyihaning ekologik va ijtimoiy risklarni va ta'sirining mohiyati va ko'lamidan kelib chiqqan holda, zarurat tug'ilganda, YTTB o'z mijozlaridan qo'shimcha ravishda loyihalarning risklarni va ta'sirlari haqida ma'lumotni oshkor qilishni, shuningdek, manfaatdor tomonlar bilan batafsil fikr almashish va muammolar yuzasidan choralar ko'rilishini talab qiladi.

Bu sohada YTTBning tajribasi bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlar ESPning quyidagi [sahifasida](#) keltirilgan.

Ish faoliyatidagi halollik va belgilangan me'yorlarga rioya qilish

YTTBning muvofiqlik nazorati boshqarmasi (OCCO) Bankda mas'uliyatli boshqaruvga ko'maklashish bilan birga Bank faoliyatining barcha jabhalarida eng yuqori standartlarda ish olib borilishini va barcha jarayonlar ilg'or xalqaro tajribalarga muvofiq bo'lishini ta'minlaydi. Bankning barcha mijozlari uchun ularning ish faoliyatidagi halolligini tekshirishdan maqsad, Bank loyiholari uchun qabul qilinishi mumkin bo'lmagan huquqiy va nufuzga oid risklarga yo'l qo'yilmaslikdan iborat. Bank nuqtai nazariga ko'ra, loyihani dastlabki baholash va tasdiqlash bosqichida muammoli jihatlarni aniqlash va ularni bartaraf qilish Bank faoliyati nufuziga putur yetkazmaslikning eng samarali vositasidir. OCCO ushbu profilaktika choratadbirlarida muhim ahamiyatga egaligi bilan birga investitsiya qilinganidan keyingi davrda Bankning nufuziga xavf soladigan risklarni nazorat qilishga yordam beradi.

OCCO, shuningdek, YTTB tomonidan moliyalashtirilayotgan loyihalar doirasidagi firibgarlik, korrupsiya va lavozimni suiiste'mol qilish bo'yicha ma'lumotni tekshiruvchi mas'ul hisoblanadi. Agar kimningdir Bank ichida yoki undan tashqarida firibgarlik yoki korrupsiya holatlari kuzatilayotganligi haqida gumoni bo'lsa, u muvofiqlik nazorati boshqarmasi boshlig'iga bu holat haqida yozma tarzda compliance@ebrd.com electron manzili orqali xabar qilishi lozim. Barcha bildirilgan daliliy ma'lumotlar tegishli choralar ko'rish uchun OCCO tomonidan ko'rib chiqiladi. Barcha xabarlar, shu jumladan anonym tarzda xabarlar ham tekshirib chiqiladi. Bu turdagi xabarlar istalgan tilda, jumladan Bank faoliyat ko'rsatayotgan mamlakatdagi rasmiy tilda tayyorlanishi mumkin. Bunday ma'lumotlar yaxshi niyatni ko'zlashi maqsadga muvofiqdir.

Axborotdan erkin foydalanish siyosati (AIP)

2020-yilning 1-yanvarida kuchga kirgan IAP YTTBning strategiyalari, siyosatlari va amaliyotlarini yaxshiroq tushunish va bilishga ko'maklashish uchun manfaatdor tomonlarga ma'lumotlarni ochiq qilish bilan birga maslahatlashuvlar tartibini belgilab beradi. YTTB veb-saytidan qanday ma'lumotlar olish mumkinligini bilish uchun [Axborotdan foydalanish siyosati](#) sahifasiga o'ting.

Muayyan savollaringizni [YTTBning ma'lumot so'rovi](#) orqali yuborishingiz mumkin.

Loyihalar bilan bog'liq shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi (IPAM)

Agar jismoniy yoki yuridik shaxslarning ekologik-ijtimoiy sohadagi yoki axborotni oshkor qilish borasidagi xavotirlarini (masalan, loyiha darajasida mijozlar tomonidan yaratilgan shikoyatlar mexanizmi yoki Bankning amaliyot boshqaruvi bilan bevosita o'zaro aloqa qilish orqali) qanoatlantirishga bo'lgan urinishlari samarasiz bo'lsa, ular YTTBning hisobdorlik mexanizmi ya'ni loyihalar bilan bog'liq shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi yordamida (IPAM) o'zlarining o'sha xavotirlarini bildirishlari mumkin.

Loyihalar bilan bog'liq shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi (IPAM), arizachilarning fikriga ko'ra, zarar yetkazishga ulgurgan yoki kelajakda zarar yetkazishi mumkin bo'lgan loyihaning

muammolarini mustaqil ravishda baholaydi. Ushbu mexanizmning vazifalari quyidagilardan iborat: - ekologik-ijtimoiy va axborotni oshkor etish bo'yicha muammolarni hal qilish uchun loyiha ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro aloqalarni o'rnatish va muloqotlarni olib borish; - Bank tomonidan ishlab chiqilgan [Ekologik va ijtimoiy siyosat](#) talablariga, shuningdek loyihaga oid tegishli [Axborotdan erkin foydalanish siyosati](#) qoidalariga rioya qilinishini baholash; - zarurat tug'ilganda, ushbu mezonlarga rioya qilmaslik holatlarini bartaraf etish, kelgusida Bank tomonidan ularni buzish holatlariga nisbatan ko'riladigan choralarini ko'zda tutish.

IPAM va uning vakolatlari haqida batafsil ma'lumot olish, ko'rib chiqilishi kerak bo'ladigan [shikoyatlarni jo'natish](#) uchun [Loyihalar bilan bog'liq shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi veb saytiga](#) kirishingiz yoki tavsiyalar olish hamda IPAM haqida qo'shimcha ma'lumot olish va shikoyat jo'natish uchun ipam@ebrd.com electron pochta orqali biz bilan bog'lanishingiz mumkin.